



2025-yil 27-fevral

# **“O'zkimyosanoat” AJ tomonidan 2024-yilda amalga oshirilgan ishlar to'g'risida hisobot**

## **I. 2024-yilda erishilgan asosiy ko'rsatkichlar.**

Sanoat - kimyo korxonalarini tomonidan 2024-yilda 17,7 trln so'm (biznes rejaga - 110,5 foiz, o'sish sur'ati - 107,3 foiz) tovar mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Jami sof holda 1 466,1 ming tonna mineral o'g'itlar, shundan, 1 136,1 ming tonna azotli, 110,8 ming tonna fosforli va 219,1 ming tonna kaliyli o'g'itlar ishlab chiqarildi.

2023-yilning mos davriga nisbatan avtomobil shinalari 407,5 ming donaga, kalsinatsiyalangan soda 9,5 ming tonnaga, natriy sianidi 3,7 ming tonnaga, polivinixlorid 3,3 ming tonnaga, natriy nitrati 1,5 ming tonnaga ishlab chiqarish hajmlari oshirildi.

Sanoat korxonalarining ishlab chiqarishlarida joriy ta'mirlash va rekonstruksiya ishlari amalga oshirildi.

“Navoiyazot” AJda - ammiak va karbamid sexida katalizatorlarni takomillashtirish hisobiga ammiak ishlab chiqarish sutkasiga 1 744 tonnadan 1 800 tonnagacha yetkazildi;

polivinilxlorid (PVX) ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etadigan tabiiy va sintez gazlari uchun mo'ljallangan kompressor uskunalari ehtiyot qismlari almashtirish evaziga PVX ishlab chiqarish barqarorligi ta'minlanib, kunlik ishlab chiqarish 137 tonnadan 180 tonnagacha oshirildi;

“Maksam-Chirchiq” AJda - karbamid ishlab chiqarish sexida modernizatsiya ishlari amalga oshirish hisobiga kunlik ishlab chiqarish 820 tonnadan 950 tonnagacha oshirildi;

“Farg'onaazot” AJda - karbamid sexi sintez kolonnasini modernizatsiyasi hisobiga karbamid ishlab chiqarish sutkasiga 1 280 tonnadan 1 320 tonnaga yetkazildi.

Toshkent viloyatida “Chirchiq” kimyo-industrial texnoparki hamda Navoiy kimyo texnoparki hududlarida ishga tushirilgan loyihalar hisobiga 382,8 mlrd so'mlik 15 yangi mahsulotlar (formalin, karbamido-formaldegid konsentrati KFK-85, paxta sellulozasi, gidroksipropilmetilsellyulozasi, kaliy sulfati, ko'pirtirilgan polipropilen, ovoz o'tkazmaydigan va issiqlik o'tkazmaydigan materiallar, termoelastoplastlar, AdBlue, yuqori bosimli laminat, tibbiy stimulyatorlar, ingibitorlar) ishlab chiqarildi.

Eksport - eksport hajmi 522,9 mln dollarni tashkil etib, o'sish sur'ati 105,6 foizga ta'minlandi.

Shuningdek, Shvetsiya, Germaniya, Italiya, Kipr, Ozorbayjon, Braziliya, Kolumbiya, Peru, Meksika, Gonkong, Mozambik, Djibuti va Marokko kabi yangi mamlakatlar, bundan tashqari yangi turdagi mahsulot, jumladan kaliy nitrati birinchi marta eksport kilindi.

Asosiy eksport hajmi Qozog‘iston, Tojikiston, Qirg‘iston, Afg‘oniston, Turkmaniston, Rossiya va Latviya yo‘nalishlari bo‘yicha (75,1 foiz) amalga oshirilgan. Shu bilan birga, kaliy mahsuloti eksportining asosiy qismi Latviya, Eron, Indoneziya, Yaponiya va Xitoy davlatlariga (80,6 foiz), kalsinatsiyalangan soda mahsulotining eksporti Qozog‘iston, Tojikiston davlatlariga (89,3 foiz) to‘g‘ri keldi.

Investitsiya – investitsiya dasturiga kiritilgan 24 ta loyiha doirasida 814,6 mln dollar o‘zlashtirilib, o‘shir sur‘ati 155,3 foizini tashkil kildi.

Shundan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar 773,4 mln dollarni, davlat kafolati ostida kreditlar 11,2 mln dollarni korxonalarining o‘z mablag‘lari 15,0 mln dollarni tashkil qildi.

Mahalliyashtirish – mahalliyashtirish dasturiga asosan 30 ta loyiha doirasida 3 867,2 mlrd so‘m mahsulot ishlab chiqarildi va reja-ko‘rsatkich 125,8 foizga bajarildi.

Shundan 13 ta kichik hajmdagi loyihalar bo‘yicha 2 259,7 mlrd so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi:

“Navoyazot” AJda - sulfat kislota, “A” markali metanol, natriy gidroksid, PVX, tiomochevina, natriy sianid, kalsiy nitrat, poliakrilamid;

“Farg‘onaazot” AJda - ammiakli selitrani gigroskopikligini kamaytirish uchun antiyopishqoq (NovoFlow 3047)ning o‘rnini bosuvchi yangi turdagi “Anti-Stick” antiyopishqoq, natriy xlorat;

“Chirchiq kimyo-industrial texnoparki” negizida yuqori bosimli laminat, tibbiy simulyatorlar;

"Central Asia Chemicals" MCHJda - chiziqli alkilnbenzol-sulfonkislota (LABSA).

Dasturga kiritilgan 30 ta loyihadan 18 tasining mahalliyashtirish darajasi 100 foiz bo‘lib, mahalliy xomashyolar asosida ishlab chiqarilishi ko‘zda tutilgan.

Mineral o‘g‘itlarni birja savdolariga qo‘yish – respublika iste‘molchilariga 2024-yilda jami fizik holda 4 603,2 ming tonna mineral o‘g‘itlar birja savdolariga qo‘yilgan bo‘lib, shundan 1 744,0 ming tonna sotilgan, jumladan, azotli o‘g‘itlar 1 483,1 ming tonna, fosforli o‘g‘itlar 165,4 ming tonna va kaliyli o‘g‘itlar 95,6 ming tonna birja savdolarida sotildi.

## **II. Transformatsiya jarayonlari bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar**

“O‘zkimyosanoat” AJ 2023-yil 31-dekabrida yakunlangan moliyaviy yil konsolidatsiyalashgan va alohida moliyaviy hisobotlari moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga (MHXS) muvofiq, xalqaro auditorlik standartlari asosida (XAS) “katta to‘rtlik”ka kiruvchi xalqaro auditorlik tashkiloti (KPMG) tomonidan o‘tkazilgan auditorlik jarayonlari yakunlandi va to‘liq ijobiy auditorlik xulosasi olindi.

“O‘zkimyosanoat” AJga Fitch Ratings xalqaro reyting agentligi tomonidan davlat suvereni darajasidagi BB- xalqaro kredit reytingi taqdim etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining so‘nggi yillarda kimyo sanoatini jadal rivojlantirish, sohaga keng qamrovli xorijiy investitsiyalarni jalb qilish maqsadida qabul qilingan qator Farmon va qarorlarida bir qancha vazifalar belgilangan. Vazifalar qatorida “O‘zkimyosanoat” AJ korporativ xalqaro kredit reytingini olishi hamda har yili yangilash, ESG reytingini qo‘lga kiritish qayd etilgan. Kimyo korxonalarida davlat ulushini qisqartirish, transformatsiya qilish, sohaga korporativ boshqaruv va xalqaro kredit reytingini qo‘lga kiritish borasidagi ishlar yuzasidan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son Farmoni hamda 2024-yil 19-apreldagi PQ-163-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Barqaror rivojlanish bo'yicha hisobot hamda ESG strategiyasini ishlab chiqish yuzasidan tegishli "Yo'l xaritasi"ni tuzish maqsadida KPMG xalqaro konsalting kompaniyasi jalb qilindi.

Halqaro "katta to'rtlik"ka kiruvchi KPMG kompaniyasi tomonidan Barqaror rivojlanish bo'yicha hisobot hamda ESG strategiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, ijobiy xulosa qo'lga kiritildi.

Bundan tashqari, ESG reytingni qo'lga kiritish bo'yicha ishlar nufuzli S&P Global kompaniyasi bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda.

### **III. Ekologiya va atrof-muhitni asrash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar**

2024-yilda kimyo korxonalarida umumiy qiymati 34,3 mlrd so'mlik chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Shuningdek:

- chang-gaz tozalash uskunalari ta'mirlash va ularning samaradorligini oshirish, atrof-muhitni muhofaza qilish chora-tadbirlarni bajarish hisobiga - 15,6 ming tonna atmosferaga tashlanma (jumladan 1,7 ming tonna zaharli-kimyoviy chiqindilar) qisqarishiga erishildi;
- atrof-muhitni muhofaza qilish chora-tadbirlarni bajarish va lokal oqova suv tozalash inshootlarini ta'mirlash hisobiga 3,3 mln kub metr oqova suv oldi olindi;
- atrof-muhitni muhofaza qilish chora-tadbirlarni bajarish hisobiga 787,6 mln kub metr artezian suvi iqtisod qilindi;
- ixtisoslashgan tashkilotlar bilan shartnomalar tuzish va korxonada ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda 31,7 ming tonna chiqindi utilizatsiya qilinishiga erishildi.

#### **source:**

"O'z kimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/corporate/disclosure/indicators/report-2024>